


Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Viloyatimizda 2018 yil yanvar-iyunida 730 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,9 % kam demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (16,3 %), savdo sohasida (26,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (18,4 %), qurilish tarmog'ida (17,0 %), yashash va ovqatlanishda (7,9 %), tashish va saqlashda (3,0 %) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 804,7 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 42,8 %) yoki 2017 yilning yanvar–iyunga nisbatan o`sish sur`ati 111,1 % ni tashkil qildi;



- 411,2 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 54,6 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 126,9 % ni tashkil qildi;



– 273,9 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 95,0 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 107,0 % ni tashkil qildi;



– 556,6 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 64,2 %), 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 101,6 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 94,2 % yoki 1094,0 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 6,6 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;


– 55,7 mln. AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 77,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 14,5 mln. AQSh dollariga yoki 135,3 % ga ko`p;




- avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,9 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 94,8 %) ko`payishi ta`minlandi;
- yo`lovchi aylanmasining esa 3,3 % ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 98,4 %) ko`payishi ta`minlandi;

Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumani (270,3 mlrd. so`m), Guliston shahri (145,4 mlrd. so`m) va Boyovut (110,3 mlrd. so`m) tumani hissasiga to`g`ri keladi.


**Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumiyligi hajmiga nisbatan % da)**



2018 yil yanvar-iyunida tuman va shahar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




2018 yil yanvar-iyunida tuman va shahar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Tuman va shaharlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (421,2 mlrd. so'm), Sirdaryo (125,9 mlrd. so'm) va Sardoba (98,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-iyunida tuman va shahar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Tuman va shaharlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Guliston shahri (157,0 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (103,7 mlrd. so'm) va Yangier (57,3 mlrd. so'm) shahri hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning
hududlar bo`yicha ulushi
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Sirdaryo viloyati	42,8	95,0	64,2
<i>Shaharlar:</i>			
Guliston	62,3	96,2	38,0
Shirin	1,0	94,5	94,6
Yangiyer	59,6	100,0	97,6
<i>Tumanlar:</i>			
Boyovut	73,5	99,8	88,2
Guliston	63,9	100,0	98,4
Mirzaobod	100,0	87,3	99,0
Oqoltin	29,7	95,7	96,1
Sardoba	40,0	99,9	72,3
Sayxunobod	66,6	80,7	42,9
Sirdaryo	79,6	99,7	94,7
Xovos	62,4	80,8	97,6

Tuman va shaharlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Mirzaobod (100,0 %), Sirdaryo (79,6 %) va Boyovut (73,5 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Mirzaobod (99,0 %), Guliston tumanlari (98,4 %), Xovos (97,6 %) va Yangier (97,6 %) shahri tashkil etadi.

Qurilishda Yangiyer shahri (100,0 %), Guliston (100,0 %), Sardoba (99,9 %), Boyovut (99,8 %) va Sirdaryo (99,7 %) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YalM dagi ulushi 63,9 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-iyunida 62,5 %). YalM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.